
Sayyor qabullar haftaligida Quva tumani "Kattaqashqar" MFY binosida o'tkazilgan sayyor qabul jarayoni

Quva tuman adliya bo'limi tomonidan 2023-yil 19-yanvar kuni Quva tumani Kattaqashqar MFYda jismoniy va yuridik shaxslar bilan navbatdagi sayyor qabul jarayonlari o'tkazildi.

"Kattaqashqar" MFYda o'tkazilgan sayyor qabul jarayonida 30 dan ziyod huquqiy jihatdan yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolar bilan suhbatlar o'tkazildi va ularning 10 ga yaqiniga sayyor qabul jarayonining o'zida tushuntirishlar berilib, murojaatlari tegishlilik yuzasidan hamkor tashkilotlarga yuborildi, shuningdek, 3 nafar fuqarolarning murojaati ariza shaklida qabul qilinib, ish yurituvga olindi.

Bundan tashqari, mahalla fuqarolariga so'nggi paytlarda qabul qilingan qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar sharhlab berilish bilan bir qatorda, bir qancha hujjatlar yuzasidan tushunchalar berildi.

2023-01-21 09:10:57